

POLICY TO COMBAT RELIGIOUS EXTREMISM AND TERRORISM IN UZBEKISTAN

Gulxayo Ibodullayeva Shuxrat qizi

Independent researcher at the National University of Uzbekistan

Abstract. This article provides a systematic analysis of Uzbekistan's policy in combating religious extremism and terrorism. It covers the theoretical foundations of these phenomena, the factors of their origin, and threats to global security. Legal, institutional, and spiritual-educational measures implemented in the country will also be reviewed. Issues of international cooperation will also be analyzed, and scientific and practical proposals for existing problems and their elimination will be put forward.

Keywords. Religious extremism, terrorism, security, politics, prevention, radicalization, legislation, stability, threat, cooperation, enlightenment, youth, ideology, global, strategy.

O‘ZBEKISTONDA DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH

Gulxayo Ibodullayeva Shuxrat qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish siyosati tizimli ravishda tahlil qilinadi. Unda mazkur hodisalarning nazariy asoslari, kelib chiqish omillari hamda global xavfsizlikka tahdidlari yoritiladi. Shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy, institutsional va ma’naviy-ma’rifiy choralar ko‘rib chiqiladi. Xalqaro hamkorlik masalalari ham tahlil etilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. Diniy ekstremizm, terrorizm, xavfsizlik, siyosat, profilaktika, radikallashuv, qonunchilik, barqarorlik, tahdid, hamkorlik, ma’rifat, yoshlar, mafkura, global, strategiya.

ПОЛИТИКА БОРЬБЫ С РЕЛИГИОЗНЫМ ЭКСТРЕМИЗМОМ И ТЕРРОРИЗМОМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Гулхаё Ибодуллаева Шухрат кизи

Независимый соискатель Национального университета Узбекистана

Аннотация. В данной статье систематически анализируется политика Узбекистана по борьбе с религиозным экстремизмом и терроризмом. В ней

освещаются теоретические основы этих явлений, факторы их возникновения и угрозы глобальной безопасности. Также будут рассмотрены правовые, институциональные и духовно-просветительские меры, реализуемые в стране. Также будут проанализированы вопросы международного сотрудничества, выдвинуты научно-практические предложения по решению существующих проблем.

Ключевые слова. Религиозный экстремизм, терроризм, безопасность, политика, профилактика, радикализация, законодательство, стабильность, угроза, сотрудничество, просвещение, молодежь, идеология, глобальный, стратегия.

Kirish. Diniy ekstremizm va terrorizm singari hodisalar ildizlari qadim tarixga borib taqalgan bo'lsa-da, ular hech qachon hozirgidek ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishga bunchalik jiddiy xavf tug'dirmagan. Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizm umumbashariy tus olib, yer yuzining barcha davlatlari va hududlariga teng darajada tahdid solmoqda. Shu bois, ularning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish butun insoniyat kelajagiga bevosita ta'sir qiluvchi dolzarb masalaga aylangan.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Muhokama va natijalar. Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Diniy ekstremizm va terrorizm zamonaviy jamiyat uchun eng dolzarb va murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan to'g'ri anglash, ularning kelib chiqish omillarini tahlil qilish hamda ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. "Ekstremizm" atamasi lotincha extremus so'zidan olingan bo'lib, "chegaradan chiqish", "haddan oshish" ma'nolarini anglatadi. Diniy ekstremizm esa diniy qarash va

e'tiqodlarni mutlaqlashtirish, boshqa fikr va e'tiqodlarga nisbatan murosasizlikni targ'ib qilish bilan tavsiflanadi [1].

Terrorizm tushunchasi esa ko'proq zo'rvonlik, qo'rqitish va siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun kuch ishlatish bilan bog'liq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, terrorizm – bu aholi yoki hukumatni qo'rqitish orqali ma'lum siyosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan noqonuniy zo'rvonlik harakatlaridir [2]. Shunday qilib, diniy ekstremizm ko'proq mafkuraviy asos bo'lsa, terrorizm uning amaliy, zo'rvonlikka asoslangan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur hodisalarning tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixda turli diniy oqimlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, diniy urushlar va murosasizlik holatlari ekstremistik kayfiyatlarning shakllanishiga zamin yaratgan. Masalan, o'rta asrlardagi diniy nizolar yoki Salib yurishlari davrida diniy g'oyalar siyosiy manfaatlar bilan uyg'unlashib, zo'rvonlik harakatlariga sabab bo'lgan [3]. Biroq, zamonaviy davrda ekstremizm va terrorizm yangi shakl va usullarda namoyon bo'lib, global miqyosda xavf tug'dirmoqda.

Diniy ekstremizm va terrorizmning kelib chiqish omillari ko'p qirrali bo'lib, ularni bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar – ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik kabi holatlar ayrim qatlamlarning radikal g'oyalarga moyilligini oshiradi [4]. Ikkinchidan, siyosiy omillar – davlat boshqaruvidagi kamchiliklar, adolatsizlik, korrupsiya va fuqarolik erkinliklarining cheklanishi ekstremistik kayfiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Uchinchidan, mafkuraviy va diniy omillar – diniy bilimlarning yetarli emasligi, noto'g'ri talqinlar va radikal guruhlarining targ'iboti muhim rol o'ynaydi [5].

Shuningdek, globallashuv jarayoni ham diniy ekstremizm va terrorizmning tarqalishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, xususan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal g'oyalar tez va keng tarqalmoqda. Bu esa yoshlarning ongiga ta'sir qilish, ularni ekstremistik guruhlariga jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi [6]. Shu nuqtai nazardan, kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyatga tahdidi ko'p jihatdan namoyon bo'ladi. Avvalo, ular ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqaradi, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka putur yetkazadi. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatib, investitsion muhitni yomonlashtiradi hamda davlatlarning xalqaro imijiga zarar yetkazadi [7]. Eng muhimi, terrorizm inson hayoti va xavfsizligiga bevosita tahdid soladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda kompleks yondashuv zarurligi ta'kidlanadi. Ya'ni, faqat kuch ishlatish

orqali emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy choralarni uyg'unlashtirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Bu borada ta'lim tizimini rivojlantirish, diniy savodxonlikni oshirish, yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish muhim omil hisoblanadi [8]. Xulosa qilib aytganda, diniy ekstremizm va terrorizm murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, uning ildizlari tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu hodisalarni chuqur ilmiy tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda samarali profilaktika choralarni ishlab chiqish zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish siyosati mustaqillikning ilk yillaridanoq davlat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllana boshladi. Mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotida diniy qadriyatlarning tiklanishi bilan bir qatorda, ayrim radikal oqimlar ham faoliyati kuchaygani kuzatildi. Shu bois davlat tomonidan diniy erkinlikni ta'minlash bilan birga, ekstremizm va terrorizmga qarshi qat'iy siyosat yuritish zarurati yuzaga keldi [9]. Dastlabki bosqichda O'zbekistonda ushbu yo'nalishda huquqiy-normativ baza yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi kafolatlanishi bilan birga, diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniy asoslari belgilab berildi [10]. 1998-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun diniy sohada davlat siyosatining muhim huquqiy poydevoriga aylandi. Mazkur hujjat diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish, diniy ekstremizmning oldini olish hamda jamiyatda konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qildi [11]. Keyingi yillarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik tizimi yanada takomillashtirildi. Jumladan, "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unda terrorizmga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari, davlat organlarining vakolatlari va fuqarolarning majburiyatlari aniq belgilab berildi [12]. Ushbu qonun mamlakatda xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish hamda terroristik tahdidlarga tezkor javob qaytarish imkonini yaratdi. O'zbekiston Respublikasida mazkur siyosatni amalga oshirishda davlat organlari va institutlarining o'zni beqiyosdir. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, maxsus xizmatlar, sud tizimi hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritib kelmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kabi tuzilmalar terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda asosiy rol o'ynaydi [13]. So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu sohadagi siyosat yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, fuqarolarning diniy erkinliklarini ta'minlash va radikallashtiruvning oldini olishga qaratilgan kompleks choralar ko'rilmog'da. Davlat siyosatida repressiv choralar bilan bir qatorda profilaktika va ma'rifiy yondashuvlarga ustuvorlik berilmog'da. Jumladan,

diniy savodxonlikni oshirish, aholining, ayniqsa yoshlarning ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, ularni turli radikal g'oyalardan himoya qilish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Shu maqsadda ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va diniy tashkilotlar o'rtasida hamkorlik kuchaytirilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yondashuv ham shakllangan. Xususan, adashgan fuqarolarni jamiyatga qaytarish, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa davlat siyosatining faqat jazolashga emas, balki profilaktika va ijtimoiy moslashuvga qaratilganini ko'rsatadi [14]. Demak, O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish siyosati bosqichma-bosqich shakllanib, bugungi kunda kompleks va tizimli xarakter kasb etgan. Huquqiy asoslarning mustahkamligi, davlat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilgani hamda ma'naviy-ma'rifiy yondashuvlarning ustuvorligi ushbu siyosatning samaradorligini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish tizimi nafaqat huquqiy asoslar, balki samarali amaliy mexanizmlar orqali ham ta'minlanadi. Mazkur mexanizmlar profilaktika, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar siyosati, axborot xavfsizligi hamda institutsional hamkorlik kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kompleks yondashuv ekstremistik g'oyalarning oldini olish va jamiyat barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, profilaktika choralari asosiy o'rinni egallaydi. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ularning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, oldini olish samaraliroq hisoblanadi. Shu bois, aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar orasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida ekstremistik g'oyalarning mohiyati va ularning xavfli oqibatlari haqida muntazam targ'ibot ishlari tashkil etiladi [15]. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati muhim rol o'ynaydi. Ushbu tuzilmalar tomonidan tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilib, ekstremistik faoliyatga moyil shaxslar aniqlanadi va ular bilan individual ishlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu esa potensial tahdidlarni erta bosqichda bartaraf etish imkonini beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham amaliy mexanizmlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Jamiyatda sog'lom diniy muhitni shakllantirish, aholining diniy savodxonligini oshirish orqali radikal g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish maqsad qilinadi. Bu borada O'zbekiston musulmonlari idorasi, ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari faol ishtirok etmoqda. Masjidlar, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali an'anaviy diniy qadriyatlar targ'ib qilinib, ekstremistik talqinlarning asossizligi ilmiy dalillar asosida tushuntirilmoqda [16]. Yoshlar siyosati doirasida ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunki radikallashuv

jarayoniga eng ko'p moyil qatlam aynan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli ularning bandligini ta'minlash, sifatli ta'lim berish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali ekstremistik g'oyalarga qarshi immunitetni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Bu yo'nalishda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan turli dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy sharoitda axborot xavfsizligi masalasi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal g'oyalar tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan nazorat va monitoring tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, ijobiy kontent yaratish, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va ularning media savodxonligini oshirish orqali kibermakondagi tahdidlarga qarshi kurash olib borilmoqda.

Amaliy mexanizmlar qatorida rehabilitatsiya va reintegratsiya dasturlari ham muhim o'rin tutadi. Ekstremistik oqimlarga adashib qo'shib qolgan fuqarolarni jamiyatga qaytarish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish maqsadida maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda psixologik yordam, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, davlat organlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Turli vazirlik va idoralar, nodavlat tashkilotlar hamda xalqaro institutlar o'rtasidagi hamkorlik ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish samaradorligini oshiradi. Bu esa kompleks va tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Bizningcha, O'zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning amaliy mexanizmlari keng qamrovli va ko'p bosqichli tizimni tashkil etadi. Profilaktika, ma'rifiy ishlar, yoshlar siyosati, axborot xavfsizligi hamda rehabilitatsiya choralari uying'unligi ushbu yo'nalishdagi siyosatning samaradorligini oshirmoqda.

Zamonaviy sharoitda diniy ekstremizm va terrorizm transmilliy xarakter kasb etgani bois, ularga qarshi samarali kurashish faqat milliy darajadagi choralar bilan cheklanib qolmaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish hamda global tashabbuslarda faol ishtirok etish mamlakat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida olib borilayotgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, BMTning Global terrorizmga qarshi strategiyasi doirasida mamlakat xalqaro huquq normalariga amal qilgan holda o'z siyosatini olib bormoqda. Bu esa terrorizmga qarshi kurashishda umumiy yondashuvni shakllantirish va davlatlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mintaqaviy darajada esa O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Hududiy xavfsizlikni ta'minlash, chegaralarni mustahkamlash, noqonuniy migratsiya va qurol - yarog' savdosining oldini olish kabi masalalarda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb

etadi. Bu borada Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) doirasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi. Mazkur tashkilot a'zo davlatlar o'rtasida xavfsizlik sohasida o'zaro ishonchni mustahkamlash va terrorizmga qarshi qo'shma choralar ko'rishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida ham terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu platforma orqali a'zo davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, qo'shma operatsiyalar va tajriba almashish yo'lga qo'yilgan. Bu esa transmilliy tahdidlarga qarshi samarali kurashish imkonini yaratadi. So'nggi yillarda O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy tashabbuslar ham alohida e'tiborga loyiq. Xususan, Markaziy Osiyoni tinch, barqaror va taraqqiy etgan hududga aylantirishga qaratilgan siyosat doirasida davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik mustahkamlanmoqda. Bu jarayonda Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xalqaro hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri – bu tajriba almashish va kadrlar tayyorlashdir. O'zbekiston xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda mutaxassislar malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda xavfsizlik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, transmilliy terrorizmga qarshi kurashishda axborot almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Davlatlar o'rtasida tezkor va ishonchli axborot almashish orqali terroristik faoliyatning oldini olish, ularning moliyaviy manbalarini aniqlash va bartaraf etish imkoniyati oshadi. Bu borada xalqaro hamkorlikning institutsional mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Demak, O'zbekiston Respublikasining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish siyosatida xalqaro hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Global va mintaqaviy darajadagi hamkorlikning mustahkamlanishi, qo'shma tashabbuslarning amalga oshirilishi hamda o'zaro ishonch muhitining kuchayishi ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish borasida muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, mazkur sohada hali ham qator muammolar va yangi tahdidlar mavjud. Ularni chuqur tahlil qilish hamda istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish davlat siyosatini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy xavfsizlik muhitining o'zgaruvchanligi, global jarayonlarning tezlashuvi va axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi bu boradagi yondashuvlarni muntazam yangilab borishni talab etmoqda. Avvalo, mavjud muammolardan biri sifatida ayrim hududlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari yetarli darajada barqaror emasligi ko'rsatiladi. Ishsizlik, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar ayrim shaxslarning radikal g'oyalarga moyilligini oshirishi

mumkin. Shu bois, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda faqat kuch ishlatish yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim muammo – diniy savodxonlik darajasining ayrim qatlamlarda yetarli emasligidir. Bu esa noto'g'ri talqin qilingan diniy g'oyalarning tarqalishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, aholining diniy va huquqiy bilimlarini oshirish, ayniqsa yoshlar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tahdidlar orasida raqamli radikallasuv alohida o'rin tutadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekstremistik g'oyalar tez tarqalib, keng auditoriyani qamrab olmoqda. Bu jarayonni nazorat qilish murakkab bo'lib, an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmaydi. Shu sababli axborot xavfsizligini ta'minlash, kibermakonda monitoring tizimini takomillashtirish va ijobiy kontent yaratishni rag'batlantirish zarur. Bundan tashqari, transmilliy terrorizm tahdidi ham saqlanib qolmoqda. Ayrim xalqaro terroristik guruhlar o'z faoliyatini yangi hududlarga kengaytirishga intilmoqda, bu esa mintaqaviy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekistonning xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirishi, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi tashabbuslarda faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Istiqbolli yo'nalishlar qatorida kompleks va tizimli yondashuvni yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy choralarni uyg'unlashtirish zarur. Ayniqsa, profilaktika ishlarini kuchaytirish, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda yoshlar siyosatini yanada samarali tashkil etish muhim yo'nalishlardan biridir. Shuningdek, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan rehabilitatsiya va reintegratsiya dasturlarini kengaytirish ham istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Ekstremistik oqimlarga adashib qo'shilgan shaxslarni jamiyatga qaytarish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish orqali qayta radikallasuvning oldini olish mumkin. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlarni joriy etish ham dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili asosida xavfsizlik tizimini takomillashtirish, tahdidlarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda samaradorlikni oshiradi. Fikrimizcha, O'zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish siyosatini yanada rivojlantirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish, yangi tahdidlarga moslashish hamda istiqbolli yo'nalishlarni izchil amalga oshirish zarur. Kompleks yondashuv, xalqaro hamkorlik va innovatsion yechimlarning uyg'unligi ushbu sohadagi siyosatning barqaror va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa. Diniy ekstremizm va terrorizm murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, ularning ildizlari tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, ularni bartaraf etish ham ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ushbu tahdidlarga qarshi kurashish siyosati mustaqillikdan buyon izchil shakllanib, bugungi kunda huquqiy, institutsional va ma'naviy asoslari mustahkam tizimga aylangan.

Amalga oshirilayotgan profilaktik, ma'rifiy va yoshlar siyosatiga oid chora-tadbirlar ekstremizmning oldini olishda muhim rol o'ynamoqda va jamiyatda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlamoqda.

Xalqaro hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash O'zbekiston siyosatining ajralmas qismi bo'lib, global tahdidlarga qarshi samarali kurashishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy tahdidlar, xususan raqamli radikallasuv va transmilliy terrorizm, mavjud siyosatni doimiy ravishda takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda.

Takliflar

Aholining, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash orqali radikallasuvga olib keluvchi omillarni kamaytirish zarur.

Diniy va huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida ta'lim tizimida zamonaviy, interaktiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni keng joriy etish lozim.

Kibermakonda ekstremistik g'oyalarga qarshi kurashishni kuchaytirish, ijobiy va ma'rifiy kontent yaratishni davlat va jamiyat darajasida qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikni yanada kengaytirish orqali tajriba almashish va qo'shma dasturlarni rivojlantirish zarur.

Ekstremistik oqimlarga adashib qo'shilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiya qilish bo'yicha insonparvarlikka asoslangan dasturlarni yanada takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. United Nations. Global Counter-Terrorism Strategy. – New York, 2006.
3. Armstrong K. Holy War: The Crusades and Their Impact. – New York: Anchor Books, 2001.
4. Gurr T.R. Why Men Rebel. – Princeton: Princeton University Press, 1970.
5. Juergensmeyer M. Terror in the Mind of God. – Berkeley: University of California Press, 2003.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
7. Hoffman B. Inside Terrorism. – New York: Columbia University Press, 2006.

8. Esposito J.L. *Unholy War: Terror in the Name of Islam*. – Oxford: Oxford University Press, 2002.
9. Karimov I.A. *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
10. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. – Toshkent, 1992.
11. “*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida*”gi Qonun. – Toshkent, 1998.
12. “*Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida*”gi Qonun. – Toshkent, 2000.
13. Saidov A.X. *Inson huquqlari va xavfsizlik*. – Toshkent: Adolat, 2013.
14. Abdullayev K. *Zamonaviy xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash*. – Toshkent: Akadernashr, 2020.
15. Yo‘ldoshev S. *Diniy ekstremizmga qarshi kurashning nazariy va amaliy asoslari*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
16. Usmonov Q. *Diniy bag‘rikenglik va jamiyat taraqqiyoti*. – Toshkent: Akadernashr, 2020.